Sudyaga savolim bor...


Siz – qadrli mushtariylarimizga oz bo‘lsa-da ko‘mak berish maqsadida savol-javob sahifasini tashkil qildik. Quyida turli huquqiy holatlarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan savollarga mutaxassis javoblari berilgan.

Men kelin bo‘lib tushgan uyimga doimiy ro‘yxatga kiritish haqida sudga da’vo arizasi bilan murojaat qildim. Sud ushbu uyga voyaga yetmagan farzandim bilan doimiy ro‘yxatga kiritilishim haqida hal qiluv qarori chiqardi. Mazkur sud qarori qachon bajariladi?

Avvalo mazkur sudning hal qiluv qarori qachon chiqarilganini aniqlash muhim.

Sudning hal qiluv qarori chiqarilgan kundan boshlab 1 oy ichida ish bo‘yicha taraf apellyatsiya shikoyati, prokuror esa apellyatsiya protesti berishi mumkin.

Agar apellyatsiya shikoyati yoki protesti berilmagan bo‘lsa, sud tomonidan hal qiluv qaroriga asosan ijro varaqasi tegishli ijro byurosiga elektron shaklda yuboriladi. Ijro byurosi tomonidan belgilangan tartibda sud qarori ijrosi ta’minlanadi.





Turmush o‘rtog‘im bilan turli kelishmovchiliklar kelib chiqqanligi natijasida bir necha marta jarohat olganman. Bu holat bolalarimning tarbiyasiga ham salbiy ta’sir qilmoqda. Shuning uchun turmush o‘rtog‘imni uydan ko‘chirish haqida sudga da’vo arizasi bilan murojaat qilsam bo‘ladimi?

Qonunga ko‘ra har bir shaxs o‘z huquqi, erkinligi va qonuniy manfaatini himoya qilish uchun sudga murojaat qilishga haqli.

Shu bois o‘z talabingizni asoslovchi dalillarni ilova qilgan holda sudga da’vo arizasi bilan murojaat qilishingiz mumkin, biroq oldindan sud tomonidan arizangiz qanoatlantirilishi yoki rad qilinish haqida fikr berilmaydi.

Har qanday holatda sudga kelib tushgan har bir da’vo arizasini sud ko‘rib chiqib, natijasi bo‘yicha qonuniy, asosli va adolatli hal qiluv qarori chiqaradi.

Uy sotib olganman. Shu uyda oilam bilan birga yashab kelayapman. Lekin uyning sobiq egasi hali ham uyda doimiy ro‘yxatda turar ekan. Kelgusida muammo bo‘lmasligi uchun nima qilsam bo‘ladi?

Doimiy ro‘yxatdan chiqarish IIB vakolatiga taalluqli. Shu bois sobiq mulkdor ro‘yxatdan chiqish uchun tegishli tuman (shahar) IIBga murojaat qilishi lozim.

Bundan tashqari, uy-joy oldi-sotdi shartnomasiga e’tibor qaratish kerak. Shartnomada uy-joyning sobiq mulkdori uy ro‘yxatidan chiqib ketish muddati ko‘rsatilgan yoki ko‘rsatilmaganini bilish kerak. Agar shartnomada muddat ko‘rsatilgan bo‘lsa, mazkur muddat o‘tganidan keyin, agar muddat ko‘rsatilmagan bo‘lsa, uy-joy kadastrdan ro‘yxatdan o‘tganidan keyin sobiq mulkdorga nisbatan foydalanish huquqini yo‘qotgan deb topish haqida sudga da’vo arizasi bilan murojaat qilishingiz mumkin.

Turmush o‘rtog‘im bilan ajrashganman. Yaqinda o‘zimga tegishli uy-joyni sotdim. Uy-joy oldi-sotdi shartnomasini rasmiylashtirish uchun notarial idoraga borganimda, sobiq turmush o‘rtog‘imning roziligi kerakligini aytishdi. U bilan ajrashganman-ku, uning roziligi nima uchun kerak?

Agar notarius uy-joy oldi-sotdisi uchun sobiq turmush o‘rtog‘ingizning roziligini talab qilayotgan bo‘lsa, demak nizoli uy-joy siz va sobiq turmush o‘rtog‘ingizning umumiy mulki ekanligini, ya’ni uy-joy qonuniy nikohingiz davrida olinganligini inobatga olgan bo‘lishi mumkin. Agar haqiqatan ham uy-joy qonuniy nikohingiz davrida olingan bo‘lsa, u bilan ajrashgan taqdiringizda ham uning roziligi talab qilinadi. Sababi sotilayotgan mulkda uning ham haqqi bor.

Kelinim tez-tez ota-onasining uyiga arazlab ketib qoladi. Bolalari sarson, unga nisbatan qanday chora bor?

Bu holat avvalo oilaviy masala. Kelaningiz tez-tez ketib qolayotganligi bo‘yicha amaldagi qonunchilikda bevosita javobgarlik nazarda tutilmagan. Lekin ota-onaning bolalarini tarbiyalash va ularga ta’lim berish borasidagi majburiyatini bajarmaslik kelgusida ma’muriy javobgarlikni keltirib chiqarishi mumkin.



Yaqinda tanishimdan uy sotib oldim, bu haqida tanishim tilxat yozib berdi. Mazkur uyga o‘zimni doimiy ro‘yxatga qo‘yish uchun IIBga murojaat qilsam, ushbu tilxat inobatga olinmasligini aytishdi. Doimiy ro‘yxatga qo‘yish bolalarimga nafaqa olish uchun zarur edi. Nima qilsam bo‘ladi?

Belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan bitim haqiqiy hisoblanmaydi. Ushbu holatda siz mazkur uyning mulkdori emassiz. Uy-joy oldi-sotdi shartnomasi yozma shaklda, notaril tartibda rasmiylashtiriladi. Shu bois tanishingiz bilan uy-joyni rasmiylashtirish uchun notariusga, notarial tartibda shartnoma rasmiylashtirilganidan keyin tegishli kadastr bo‘limiga murojaat qiling. Agar ushbu holat bo‘yicha muammoli vaziyat mavjud bo‘lsa, yuridik xizmatdan foydalanishingiz tavsiya qilinadi.

Bundan tashqari, uy mulkdorining roziligi bilan mazkur uyga ro‘yxatga qo‘yilishingiz ham mumkin.

Yosh oilamiz. Lekin turmushimizga qaynonam aralashishi natijasida oilamiz buzilish darajasigacha bormoqda. Qaynonamga chora bormi?

Qonun hujjatlarida turmushga aralashganlik uchun javobgarlik nazarda tutilmagan. Agar haqorat, tuhmat qilingan, jarohat yetkazilgan bo‘lsa, bu kabi holatlarga nisbatan ma’muriy va jinoiy javobgarlik mavjud.

Oilada katta-kichik, hurmat-izzat, odob-axloq, tarbiya degan tushunchalar bor. Oilada kimdir yaqin kishisiga nisbatan tanbeh berib, koyishi mumkin, to‘g‘ri yo‘ldan ketmasa, oxiri salbiy holatlar kelib chiqishini ta’kidlab nasihat berishi ham mumkin.

Agar shaxs bu holatda meni haqorat qildi, qadr-qimmatimni yerga urdi deb o‘ylab huquqni muhofaza qiluvchi organga murojaat qilsa nima bo‘ladi?

Shaxsning xatti-harakatida ma’muriy huquqbuzarlik alomati bo‘lmasligi ham mumkin. Lekin bu holatni noto‘g‘ri tushunib, murojaat qilishi natijasida ular, ya’ni oiladagi yaqinlar o‘rtasida salbiy munosabat vujudga keladi.

Yana bir misol. Kelin qaynonam meni haqorat qildi deb tegishli organga murojaat qildi. Agar haqiqatan ham qaynona haqorat qilgani isbotlansa, javobgarlikka tortilishi mumkin.

Lekin shu holat natijasida er-xotin birga tinch, ahil-inoq yashab keta oladimi? Shuning uchun “to‘ydan oldin ko‘zingni kattaroq och, to‘ydan keyin ko‘rganingni ham ko‘rmaganlikka ol” deb bejiz aytishmagan.

Jamiyatda va oilada yaxshi yashash uchun inson avvalo o‘zini tarbiyalashi, ma’rifiy-ma’naviy ahamiyatga ega, psixologiyaga oid kitoblarni o‘qishi kerak deb o‘ylayman.





Sud tartibida bolaning nasl-nasabi qay tartibda belgilanadi?

Bolaning nasl-nasabini belgilash O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi bilan tartibga solinadi. Bolaning tug‘ilganligi haqidagi guvohnoma FHDY bo‘limi tomonidan tibbiyot muassasasining hujjatiga yoki boshqa dalillarga asosan beriladi.

Qonuniy nikohda bo‘lgan shaxslar o‘rtasida tug‘ilgan bolaga nisbatan nasl-nasab nikoh haqidagi guvohnoma asosida qayd etiladi. O‘zaro qonuniy nikohda bo‘lmagan shaxslar o‘rtasida tug‘ilgan bolaga nisbatan nasl-nasab ularning arizasiga asosan FHDY bo‘limida belgilanadi. Nizo bo‘lgan taqdirda sud tomonidan otalik belgilanadi.

Otalikni belgilash bilan otalik faktini belgilashning farqi bor. Xususan, otalikni belgilash haqidagi ishlar sudda da’vo ishini yuritish tartibida ko‘rib chiqiladi. Bunda asosan bolaning onasi bolaning biologik otasiga nisbatan otalikni belgilash haqidagi da’vo arizasi bilan fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga murojaat qiladi. Sud tomonidan mazkur arizani ko‘rish jarayonida taraflarning tushuntirishlariga, dalillarga, bundan tashqari sud tomonidan tayinlangan DNK ekspertizasi xulosasiga asoslanib qaror chiqariladi.

Otalik faktini belgilash haqidagi ishlar esa alohida tartibda ish yuritish qoidalari asosida ko‘rib chiqiladi. Bunda bolaning onasi arizachi sifatida otalik faktini belgilash haqidagi ariza bilan fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga murojaat qiladi.

Ya’ni bolaning biologik otasi tirik bo‘lsa, otalikni belgilash haqida da’vo arizasi bi-

lan, bolaning biologik otasi vafot etgan, lekin bolaning otaligi belgilanmay qolgan bo‘lsa, otalik faktini belgilash haqida ariza bilan murojaat qilinadi. Sud tomonidan otalik faktini belgilash haqidagi arizani ko‘rish jarayonida ham dalillarga asoslanib qaror chiqariladi.

Otalikni belgilash yoki otalik faktini belgilash haqidagi da’vo arizasi yoki ariza sudning ish yurituviga faqat bola tug‘ilganligi FHDY bo‘limi tomonidan qayd etilganidan so‘ng va otasi haqidagi yozuv ona ko‘rsatmasi bo‘yicha, ya’ni yolg‘iz ona arizasi bo‘yicha amalga oshirilgan tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma taqdim etilganda qabul qilinishi mumkin.

FHDY bo‘limi tomonidan bolaning tug‘ilganligi qayd etilmagan bo‘lsa yoki qayd etilgan bo‘lsa-da, bolaning tug‘ilishi ona ko‘rsatmasi bo‘yicha, ya’ni yolg‘iz ona arizasi bo‘yicha emas, balki bolaning otasi sifatida boshqa aniq shaxs ko‘rsatilgan holda ham sud arizani qabul qilishni rad etadi.

Chunki bolaning otasi to‘g‘risida FHDY tomonidan amalga oshirilgan yozuv bola unda ko‘rsatilgan shaxsdan bino bo‘lganini tasdiqlovchi dalil hisoblanadi.

Qonunda otalikni belgilash to‘g‘risidagi nizolarni hal etish chog‘ida sud e’tiborga olishi zarur bo‘lgan muayyan shartlar belgilangan bo‘lib, ular bolaning onasi va javobgarning bola tug‘ilishiga qadar birgalikda yashaganliklari va umumiy ro‘zg‘or yuritganliklari, bolaning onasi va javobgar bolani birgalikda tarbiya qilganliklari yoki ta’minlab turganliklari, javobgar otalikni tan olganligini ishonchli tasdiqlovchi boshqa dalillar mavjudligi hisoblanadi.

Ta’kidlash lozimki, otalikni belgilash to‘g‘risidagi talablarni qanoatlantirish uchun ko‘rsatib o‘tilgan shartlardan bittasi ish bo‘yicha aniqlanishi yetarlidir.

Otalikni belgilash yoki otalik faktini belgilash haqidagi ishlar bo‘yicha qanoatlantirilgan va qonuniy kuchga kirgan sudning hal qiluv qarori bolaga nisbatan yuritilgan tug‘ilganlik haqidagi dalolatnoma yozuviga o‘zgartirish kiritish uchun asos hisoblanadi



va tuman, shahar FHDY bo‘limi tomonidan ijro qilinadi.

Ushbu holatda FHDY bo‘limi sudning hal qiluv qaroriga asosan bolaga nisbatan boshqatdan tug‘ilganlik haqida guvohnoma beradi.

Ushbu holatlar o‘z navbatida ota-ona va bola o‘rtasida qonun bo‘yicha shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradi.

Xususan, bolaning shaxsiy nomulkiy huquqi sifatida oilada yashash va tarbiyalanish huquqi, mulkiy huquqi sifatida ota-onadan ta’minot olish huquqi, bundan tashqari, ota-ona vafot etgan taqdirda boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasini olish, meros olish huquqini vujudga keltiradi.

Shu bilan birgalikda mazkur bola voyaga yetganidan keyin nafaqat onasi oldida, balki otasi oldida ham huquqiy majburiyatlarni vujudga keltiradi.

S. NAMAZBAYEVA,
Sirdaryo viloyat sudi
fuqarolik ishlari bo‘yicha sudyasi